

## Kredit bozorlarining iqtisodiy rivojlanishga ta'siri va defolt xavfi

Guliston davlat universiteti

Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar fakulteti talabasi

No'monjonova Shoxsanam Muzaffar qizi

[nomonjonovashohsanam221@gmail.com](mailto:nomonjonovashohsanam221@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kredit bozorlarining iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga ko'rsatayotgan ta'siri va defolt xavflarini boshqarish masalalari tahlil qilingan. O'zbekiston kredit bozorining hozirgi holati, rivojlanish tendensiyalari va iqtisodiyotning real sektoriga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot davomida kredit bozorlarining makroiqtisodiy barqarorlikka ko'rsatayotgan ta'siri, defolt xavflarini baholash mexanizmlari va ularni minimallashtirishning zamonaviy usullari tahlil qilingan. **Kalit so'zlar:** kredit bozori, iqtisodiy rivojlanish, defolt xavfi, moliyaviy barqarorlik, kredit riski, bank tizimi, kreditlash siyosati, makroiqtisodiy ta'sir, qarz yuki, moliyaviy vasitatchilik.

### KIRISH

Kredit bozorlarining zamonaviy iqtisodiyotdagi roli va ahamiyatini inkor qilib bo'lmaydi. Moliyaviy vositachilik tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lgan kredit bozori iqtisodiy o'sish, investitsiyalarni rag'batlantirish va innovatsiyalarni moliyalashtirish jarayonlarida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu bilan birga, kredit bozorlarining noto'g'ri rivojlanishi yoki nazorat qilinmasligi jiddiy moliyaviy inqirozlarga olib kelishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida kredit bozorining rivojlanishi mamlakatning bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonining muhim elementlaridan biri hisoblanadi. 1991-yildan boshlab bank tizimining shakllanishi va kreditlash faoliyatining rivojlanishi milliy iqtisodiyotning zamonaviylashtirish jarayonida muhim rol o'ynadi.

Kredit bozorlarining iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sirini ta'minlash bilan birga, defolt xavflarini boshqarish zamonaviy moliyaviy tizimning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu muammoning dolzarbligi, ayniqsa, so'nggi yillarda global moliyaviy bozorlar barqarorligiga bo'lgan e'tibor ortishi bilan yanada oshdi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda 2025-yil 1-yanvardan boshlab qarz yuki (DSTI) koeffitsienti 50 foizgacha qisqartirilishi va yangi kreditlash standartlarining joriy etilishi kredit bozorida muhim o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda.

Kredit bozori jamg'armalar va investitsiyalar o'rtasida ko'prik vazifasini o'taydi. Bank tizimlari aholi va korxonalar jamg'armalarini yig'ib, ularni iqtisodiyotning eng samarali sohalariga investitsiya shaklida yo'naltirish jarayoni kapitalning optimal taqsimlanishini ta'minlaydi va iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Mamlakatimizda turli xil kredit yo'nalishlari rivojlangan:

- Iste'mol kreditlari
- Avtokreditlar
- Uy-joy kreditlari
- Biznes-kreditlar
- Mikroqarzarlar
- Ta'lim kreditlari

**1-jadval. Turli banklarning kredit takliflari<sup>1</sup>**

Kredit nomi, bank nomi	Foiz stavkasi	Muddat	Summa
Ipak Yo'li Banki <a href="#">Avtokredit-UzAuto Motors</a>	16.99dan - 23.99 % gacha	2 yil - 4 yil	1 000 000dan - 950 000 000 so'mgacha
O'zsanoatqurilishbank <a href="#">Bir necha daqiqa ichida mikroqarz</a>	29dan - 34 % gacha	1 yil - 4 yil	2 000 000dan - 100 000 000 so'mgacha
Asakabank <a href="#">Avtokredit GM</a>	5.5dan - 20.5 % gacha	2 yil - 4 yil	1 000 000 000 so'mgacha
Anorbank <a href="#">Avtokredit 3.0</a>	33 %	3 yil - 5 yil	400 000 000 so'mgacha
TBC Bank <a href="#">TBC Kredit</a>	28 % dan	3 oy - 3 yil	300 000dan - 100 000 000 so'mgacha

<sup>1</sup> Markaziy bank statistik ma'lumotlari



Trastbank <a href="#">Mikroqarz</a>	28dan - 30 % gacha	1 yil - 5 yil	100 000 000 so'mgacha
--	-----------------------	---------------	--------------------------

Kredit mablag'lari kichik va o'rta biznes faoliyatlarini qo'llab quvvatlashda, yangi ish o'rinlari yaratish orqali aholini ish bilan taminlashda, iqtisodiyotga yangi ilmiy texnologiyalar va g'oyalarni joriy etishda, raqobatbardoshlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### Tahlil va natijalar:

Hozirgi kunda O'zbekiston bank tizimida 31 ta tijorat banki faoliyat ko'rsatmoqda, ularning 17 tasi yirik va 14 tasi kichik banklar hisoblanadi. Bank tizimining kredit portfeli yildan yilga o'sish ko'rsatkichlarini namoyon qilmoqda.

Kredit bozorining rivojlanishi YIM o'sish sur'atlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kreditlash hajmining oshishi iste'mol va investitsiya talabini oshiradi, bu esa iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi.


Shuningdek, kredit mablag'larining haddan tashqari o'sishi inflyatsion bosimni kuchaytirishi mumkin. Shu sababli Markaziy bank pul-kredit siyosati orqali kredit bozorini tartibga soladi. Biznes-kreditlarning ko'payishi yangi ish o'rinlarini yaratishga yordam beradi va ishsizlik darajasini pasaytiradi.

Defolt - bu qarz oluvchining o'z majburiyatlarini belgilangan muddatda to'la bajara olmasligi holatidir<sup>2</sup> va buning ham bir necha xil turlari mavjud(1-rasm). Bu moliyaviy institutlar uchun kredit riskini oshiradi.

# Research Science and Innovation House

1. <sup>2</sup> G'ulomov S., Haydarov A., G'ulomov Sh. va boshqalar. **Bank ishi:** O'quv qo'llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2010. – 456 b.





**1-rasm. Defolt xavfining turlari**

O‘zbekistonda ko‘plab iqtisodchilarda davlat aholi qarzini qaytara olmasligi bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelishi haqida xavotir bor. Markaziy bank 2024-yildagi moliyaviy barqarorlik sharhida bu masalaga alohida to‘xtalgan.

Aytish joizki, bu o‘ziga yarasha xavflarni keltirib chiqarmoqda. Misol uchun, uy-joylar narxlarining ortiqcha baholanishi davom etmoqda, mikroqarzlarning yuqori sur‘atlarda o‘sishi hamda kiber xatarlar qizg‘in tus olmoqda, tashqi moliyalashtirish bo‘yicha yuqori xarajatlar uzoq muddatda saqlanib qolishi, O‘zbekistonning moliyaviy hamda nomoliyaviy sektori ishtirokchilariga nisbatan ikkilamchi sanksiyalarni joriy etish xavfi asosiy xatarlar hisoblanmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan shuni ko‘rish mumkinki, kredit bozorining muvozanatli rivojlanishi iqtisodiy o‘shishning muhim shartlaridan biridir. Biroq, 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz kreditlash standartlarining yumshatilishi va defolt xavflarini noto‘g‘ri baholashning oqibatlarini ko‘rsatdi.

#### **Xulosa:**

Xulosa qilib aytganda, kredit bozorlarining iqtisodiy rivojlanishga ta‘siri ko‘p qirrali va murakkab jarayon hisoblanadi. Birinchidan, kredit bozorining rivojlanishi iqtisodiy o‘shish, investitsiyalarni rag‘batlantirish va moliyaviy inklyuziyani oshirishda muhim rol o‘ynasa, ikkinchi tomondan, noto‘g‘ri boshqarilgan kredit



bozori jiddiy moliyaviy xavflar yaratishi va makroiqtisodiy barqarorlikni buzishi mumkin.

O‘zbekiston kredit bozorining tahlili shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda bu soha sezilarli rivojlanishga erishgan. Ushbu sohaning ijobiy tomonlari sifatida kredit portfelining o‘shishganligi, yangi kredit mahsulotlarining joriy etilganligi va kreditlash jarayonlarining takomillashganligini aytish joiz.

Biroq, Markaziy bankning moliyaviy barqarorlik sharhida ko‘rsatilganidek, defolt xavflari ortib borishi va aholining qarz yukining oshishi tashvish uyg‘otmoqda. Bu masalalarni hal qilish uchun qabul qilingan DSTI koeffitsientini 50 foizgacha cheklash va boshqa chora-tadbirlarni o‘z vaqtida amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kelajakda O‘zbekiston kredit bozorining barqaror rivojlanishi uchun kredit riskini boshqarish tizimlarini takomillashtirish, kredit riskini boshqarish tizimlarini takomillashtirish, prudentsial nazoratni kuchaytirish, makroiqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Kredit bozorlarining muvozanatli rivojlanishi O‘zbekiston iqtisodiyotining uzoq muddatli barqaror o‘shishi uchun muhim shart hisoblanadi.


#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

1. G‘ulomov S., Haydarov A., G‘ulomov Sh. **Bank ishi:** O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2010. – 456 b.
2. Yo‘ldoshev R.S., Abdulkarimov M.M. **Moliya:** O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 412 b.
3. Markaziy bank. **O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2024-yilgi moliyaviy barqarorlik sharhi.** – Toshkent: MBUZ rasmiy sayti, 2024.
4. Mishkin F.S. **The Economics of Money, Banking and Financial Markets.** – 12th ed. – Pearson, 2019.
5. IMF. **Global Financial Stability Report.** – International Monetary Fund, 2023.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi. **Kreditlash bozoridagi islohotlar va barqarorlik masalalari.** – Analitik sharh, 2024.
7. World Bank. **Financial Inclusion Overview.** – World Bank Group, 2023.

<https://www.worldbank.org>



8. Krugman P., Wells R. **Macroeconomics**. – 6th ed. – Worth Publishers, 2022.
9. OECD. **Credit Market Trends and Risk Management**. – OECD Publishing, 2022.
10. Qudratov A., Komilov A. **Makroiqtisodiyot**. – Toshkent: “IQTISOD-MOLIYA”, 2020. – 384 b.



Research Science and  
Innovation House

